

## “QUTADG‘U BILIG” ASARINING YOSHLARNI MA’NAVIY- AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648930>

**Allayarova Marhabo Mavlonoyna,**  
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,  
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti  
Boshlang‘ich ta’lim, 4 kurs talabasi  
Raximova Zarina. allayarova.marhabo@gmail.com

**Annotasiya:** Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining bolalar xulq-atvoriga ta’siri, undagi axloqiy g‘oyalalar va bu g‘oyalarni yosh avlod tarbiyasida qanday qo’llash mumkinligi haqida so‘z yuritilgan. Barcha Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida ma’naviy, barkamol insonni tarbiyalash asosiy masala sifatida ko’tarilgani kabi mazkur asar ham yosh avlodni barkamollik sifatlari -axloqiy fazilatlar, bilim va donishmandlikka yo’naltirishda muhim manba ekanligi yoritilgan va tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** axloqiy g‘oyalalar, odob, xulq, adolat, bilim, ezgulik, rostg‘oylik, tarbiya, ma’naviyat, donishmandlik.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КУТАДГУ БИЛИГ» В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация:** В произведении Юсуфа Хоса Хаджиба “Кутадгу билиг” говорится о влиянии на поведение детей, моральных идеях в нем и о том, как эти идеи могут быть применены в воспитании подрастающего поколения. Подобно тому, как все восточные мыслители в своих произведениях ставили в качестве главного вопрос воспитания духовного, совершенного человека, так и это произведение выделяется и анализируется как важный источник для направления молодого поколения к качествам совершенства - моральным качествам, знанию и мудрости.

**Ключевые слова:** нравственные идеи, манеры, поведение, справедливость, знания, добро, честность, воспитание, духовность, мудрость.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE WORK "KUTADGU BILIG" IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

**Abstract:** The influence of Yusuf Khos Hajib's work “Kutadgu Biliq” on children's behavior, the moral ideas in it, and how these ideas can be applied in the upbringing of the younger generation are discussed. Just as all Eastern thinkers raised the upbringing of a spiritual, well-rounded person as the main

issue in their works, this work is also highlighted and analyzed as an important source in guiding the younger generation towards the qualities of perfection - moral qualities, knowledge, and wisdom.

**Key words:** moral ideas, manners, behavior, justice, knowledge, goodness, honesty, education, spirituality, wisdom.

## Kirish

Har bir jamiyatning kelajagi va taraqqiyoti uning yosh avlodi tarbiyasiga bog'liq. Bolalar ma'naviy tarbiyasi va ularning to'g'ri xulq-atvor egasi bo'lishi har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Yangi O'zbekistonni barpo etish va uning taraqqiyoti yoshlari tarbiyasi, intellektual salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod ma'naviy tarbiyasiga katta e'tibor qaratib, islohotlarimiz zamirida qat'iy yondashish kerakligini quyidagicha ta'kidlaydi: "...biz mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz ayniqsa yoshlari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak". [1:278-b] Bu borada bolalar ma'naviy tarbiyasida azaliy milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan xulq-odob qoidalari va fazilatlarni o'rgatish hozirgi globallashuv davrida birlamchi vazifaga aylandi.

**Tadqiqot metodlari (Methods).** Ushbu maqolada "*Qutadg'u Bilig*" asarida ma'naviy- axloqiy tarbiyaga oid tushunchalarning turli jihatlari adabiy-falsafiy tahlil asosida o'rganiladi. Asarda ilgari surilgan axloqiy konsepsiyasining falsafiy asoslari tahlil qilinib, ularning ma'naviy va axloqiy talqini o'rganiladi. Bundan tashqari, tarixiy-qiyosiy yondashuv yordamida "*Qutadg'u Bilig*"dagi odob, xulq, adolat, bilim tushunchalari ochib beriladi. Bu yondashuv asardagi axloqiy me'yorlarning ma'naviy mezon sifatidagi o'ziga xos ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi. Shuningdek, falsafiy-mantiqiy tahlil usuli asosida asarda keltirilgan poetik obrazlar orqali axloqiy tushunchalarning turli jihatlari ochib beriladi, ularning axloqiy va ma'naviy kontekstdagi o'rni kontent-tahlil orqali ko'rib chiqiladi.

## Natijalar (Results)

Yosh avlodni xalqimizning beba ho ma'naviy meroslaridan bahramand qilish ular ma'naviy-axloqiy tarbiysida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ana shunday meroslardan biri bo'lmish Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u bilig*" dostoni yoshlarni axloqiy fazilatlar, bilim va donishmandlikka yo'naltirishda muhim manba hisoblanadi. Barcha Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ma'naviy, barkamol insonni tarbiyalash asosiy masala sifatida ko'tarilgani kabi mazkur asarda ham muallif shaxs tarbiyasida bir qator axloqiy fazilatlar va xislatlarni ulug'laydi. Mazkur asar haqida faylasuf olim Bo'ri Ziyomuxammedov "*Qutadg'u bilig*-baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lif degan ma'noni bildiradi, demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlari, ta'lif-tarbiyaga oid, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asar ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi." - deb qayd etgan edi. [2:50-b]

Ma'lumki, "Qutadg'u bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim") XI asrda yashagan turkiy olim va adib Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan pand-nasihat dostonidir. Ushbu asar 1069–1070-yillarda Qoraxoniylar davlati hukmdori Tabg'ach Bug'roxon uchun yozilgan. Asar turkiy tilda aruz vaznida yozilgan bo'lib, 6520 baytdan iborat. Dostonning asosiy maqsadi inson hayotidaadolat, bilim, axloq va donishmandlikning qanchalik muhim ekanini tushuntirishdan iborat. Ushbu qadriyatlar aynan bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi, chunki yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash orqali kelajak jamiyatining poydevorini mustahkamlash mumkin. Mazkur dostonda shoirning o'zi aytgenidek:

Boshdan oxirigacha donolar so'zi,  
Go'yoki tizilgan marjondek o'zi.

"Qutadg'u bilig" dostonida adib to'rtta asosiy obraz orqali hayotiy hikmatlarni o'rgatadi: Kuntug'di - Adolat timsoli (Hukmdor), Oyto'ldi - Davlat va baxt timsoli (Vazir), O'gdulmish - Aql va donishmandlik timsoli (Vazirning o'g'li), O'zg'urmish - Qanoat va taqvo timsoli (Zohid).

Ushbu obrazlar orqali muallif insonning mukammal tarbiyasiga oid muhim saboqlarni beradi. Asarda tilga olingan masalalarning ko'لامи shunchalik kengki, ularni oddiygina sanashning o'zi ham bir necha sahfalarni tashkil etadi. "Qutadg'u bilig"da bolalar xulq-atvorini to'g'ri shakllantirishda o'ziga xos yondashuv mavjud bo'lib, u quyidagi jihatlar bilan muhim o'rinn tutadi:

1. **Ezgulik, to'g'rilik vaadolatni shakllantirish:** Asarning bosh qahramonlaridan biri Kuntug'di adolat va ezgulikni ifodalaydi. U hukmdor bo'lishiga qaramay, o'z xalqiga odil xizmat qilishga intiladi va har bir qarorini adolat asosida qabul qiladi. Farzandlarda ezgulik, haqiqatgo'ylik va vijdon tushunchalarini shakllantiradi:

"Falakda dovullab turgan kunga boq,  
Yetuklik ramzi u –munavvar, porloq.  
Mening qilig'im ham quyoshga qiyos,  
Adolatim ortar, u bo'magay oz.  
Mening xislatim shu: manguman o'zim,  
Bari xalqqa birdek, qilig'im, so'zim". [3:25-b].  
Yana bir juftlikda ezgulik tushunchasi yoritiladi:  
"Yigit Kuntug'didan ezgulikning qanday namoyon bo'lishini so'raydi:  
Elig deydi: ezgu kishi odati-  
Naf beradi elga har kun-soati.  
Bori elga eltar faqat ezgulik,  
Yana minnat urmas egu, kiygulik.  
O'z nafin o'ylamas yaxshilik qilsa,  
Yana kutmas undan o'ziga hissa." [3:26-b]  
Ularni haqiqat uchun kurashishga,adolatsizlikdan tiyilishga o'rgatadi.

## 2. Ilm olish va tafakkurni rivojlantirish:

Yusuf Xos Hojib insonlarni bilimni qadrlash undaydi va asar mazmuni ham asosan bilim olishga chorlash ruhida yozilgan. Ilm jamiyatni to'kis rivojlanishi va

balo-qazolardan asraguvchu kuch sifatida tafsiflanadi. Odamzod bilim orqali o‘zning naslinini ulug‘laydi, sharaflaydi, bilim aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir, deyiladi asarda:

“Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,  
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq...  
O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar.  
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.  
Uquvli uqaru bilimli bilar,  
Bilimli, uquvli shodlikka to‘lar. [3:11-b].

Ularni bilimli insonlarni, maktab va ustozlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi. Bilim haqida aytilgan fikrlarga qulqoq tutilsa, ularda shunday purhikmat mavjud: Bilimdonga balo yo‘q. Bilimga intilmagan kishidaga turli kasallik bo‘ladi.

“Bilimsiz kishida kasallik bo‘lar,  
Kasal emlanmasa, yashamas, o‘lar!...  
Kelu kasalligingni tuzatgin, nodon.  
Bilimsiz tubandir, bilimdon shodon.” [3:11-b]

Shuningdek asarda muallif “Bilim, o‘ylab ko‘rilsa, misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-maqсадларига erishadi. Aql-idrok egalarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa elda aziz bo‘ladi, hurmat qozonadi. Butun ishlar uquv-idrok bilan hal etiladi.”, deya ta’kidlaydi. [3:12-b]

“Qutadg‘u bilig” asarida O‘gdulmish obrazi ilm va donishmandlikning muhimligini ta’kidlaydi. Asarda ilm olish insonning eng katta boyligi ekanligi ko‘rsatiladi. Bolalar tarbiyasida ularni kitob o‘qishga, bilim orttirishga undaydi, bilimni mash’alga qiyoslaydi.

“O‘quv qut beradi, bilim sharaf-shon,  
Shu ikkov tufayli ulug‘dir inson”. [3:17-b].

Adib bilimni yoqimli ifordek, uni tiganmas boylikka o‘xshatadi: “bilim ipor bilan juda o‘xhash. Ularning har ikkisini ham yashirmoq behuda. Iporni yashirsang, hidi bildirib qo‘yadi. Bilimni yashirsang tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas-tiganmas boylikka o‘xhash.” [3:18-b].

Adolat timsolidagi podsho Elig- Kuntug‘mish bilimli kishilar homiysi sifatida gavdalantiriladi va bilim homiysi sifatidagi fazilati ulug‘lanadi. O‘gdulmishni bilim va aql-zakovatda yetukligini sinab uni vazir qilgani, o‘z mamlakatiga bilimli kishilar kerakligi aks ettirilgan: “Elig O‘gdulmishning qadriga yetdi. Unga baland unvon vazirlik muhri, turli-tuman ziynatlar berdi.” [3:39-b] Demak, ko‘rinib turibdiki, bilim insonni qadr –qimmatini oshiradi, uning kelajagini porloq qiladi.

### 3. Axloqiy fazilat va yetuklikni shakllantitish:

Adib axloqiylik fazilatlariga xos bir qator sifatlarni ulug‘lash va unga amal qilish, rioya qilishni ta’kidlaydi. Vazir O‘gdulmish o‘ziga o‘ribbosar O‘zg‘urmishga axloqiylikdan o‘git beradi:

“O’ltirar chog‘ida o‘rningni bilgin,  
Hech kimni past ko‘rma, kishilik(yaxshilik) qilgin.  
Bor ovozni qo‘yib kulmagan sira,  
Tubanlik bo‘lar bu kishilar ora.” [3:89-b]

Shu bilan birga Yusuf Xos Hojib mehmondorchilikda, ziyofatda o‘zni tutish fazilatlari, salom berish odati, do‘sit tutish, o‘zini jamoada tutish kabi bir qator axloqiy o‘gitlarni nasihat qiladi. Ayniqsa muallif jamiyatdagi barcha tabaqa, toifalarga xos fazilat, qusurlar, ijtimoiy ahvolni aniqroq ochib beradi, illatlarni qoralaydi, tanqid etadi. [4:123-b]

### Muhokama (Discussion)

“Qutadg‘u bilig” asarida ma’naviy axloqiy tarbiya axloqiy kategoriyalarning talqini bilan bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bilim olish, uni qadrlash insonning axloqiy va ma’naviy kamoloti bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiriladi. Ushbu yondashuv Sharq badiiy adabiyotining pandnomma-nasihat metodlariga mos keladi. Yusuf Xos Hojib asarida inson kamolotiadolat, rostg‘oylik, bilim, donishmandlik va axloqiy yuksaklik kabi fazilatlar bilan ulug’lanadi. Bu asosan uch mezonda olib qaraladi: avvalo, ezgulik, to‘g‘rilik vaadolatni shakllantirish insonni jamiyatdagi o‘rnini topishga yo‘naltiradi. Ikkinchidan, ilm olish va tafakkurni rivojlantirish shaxsnii komolotga chorlaydi. Axloqiy fazilat va yetuklikni shakllantitish ma’naviy tarbiyani namoyon qiladi. “Qutadg‘u bilig” asaridagi ezgulik, to‘g‘rilik vaadolat, ilmni ulug’lash, qadrlash axloqiy fazilatlarga rioya etish ma’naviylik mezoni bilan asoslanadi.

Asarda axloqiy fazilatlar qahramonlar badiiy obrazlarida tavsiflanadi. Unda bilimli insonlar jamiyatni rivojlantirishni ta’kidlab, yoshlarga ilm-ma’rifatga intilishni targ‘ib qiladi. Rahbarning, donishmandlarning va xalq xizmatidagi insonlarning fazilatlari badiiy obrazlarda aks ettirilgan. Bu jihatlar bugungi yoshlarni axloqiy va ma’naviy tarbiyalashda, barkamol inson sifatida kamol topishi, bilim va intellektual salohiyatga intilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U Sharq ma’naviy merosining memorial asari sifatida jahon adabiyotining noyob manbadir.

Asarning bunday ahamiyati ko‘plab alloma va mutafakkirlar tomonidan yuksak baholangan va ta’lim tizimida muhim manba sifatida o‘z qimmatiga egadir.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning mazkur asari necha asrlar o‘tsa ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini davr dolzarbligidan yo‘qotgani yo‘q. Bugungi yosh avlod ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda va ularda bilimga mehr-muhabbatini uyg‘otishda mazkur asarning o‘rni va ahamiyati juda beqiyos bo‘lib, bu kabi ajdodlar merosini umumiy ta’lim tizimi dasturlarida keng ommalashtirish va o‘rganish, foydalanish maqsadga muvofikdir. Ayniqsa milliy-ma’naviy taraqqiyotimizda ajdodlarimiz buyukligiga ehtirom uyg‘otish, ma’naviy, mafkuraviy-g‘oyaviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Т.: “O‘zbekiston”, 2021 йил, -278 бет.
2. Зиёмухаммедов Б, И smoилов Ф. Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. Монография. -Т.: ”Сано-стандарт” нашриёти, 2011, -50 бет.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент: ”Юлдузча”, 1990 йил, -11, 12, 17, 18, 89 бетлар.
4. Маънавият юлдузлари. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001 йил, -123 бет.